**O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.12.2019.FM.01.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

V.I. ROMANOVSKIY NOMIDAGI MATEMATIKA INSTITUTI

XAYRIYEV UMEDJON NARMON O‘G‘LI

DIFFERENSIALLANUVCHI DAVRIY FUNKSIYALARNING GILBERT FAZOSIDA INTEGRALLARNI TAQRIBIY HISOBLASHNING OPTIMAL METODLARI

**01.01.03 – Hisoblash matematikasi va diskret matematika
(fizika-matematika fanlari)**

**FIZIKA-MATEMATIKA FANLARI
bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent-2023

UDK: 519.644

Fizika-matematika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по физико-математическим наукам

Content of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD) on physical-mathematical sciences

**O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.12.2019.FM.01.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

V.I. ROMANOVSKIY NOMIDAGI MATEMATIKA INSTITUTI

XAYRIYEV UMEDJON NARMON O‘G‘LI

DIFFERENSIALLANUVCHI DAVRIY FUNKSIYALARNING GILBERT FAZOSIDA INTEGRALLARNI TAQRIBIY HISOBLASHNING OPTIMAL METODLARI

**01.01.03 – Hisoblash matematikasi va diskret matematika
(fizika-matematika fanlari)**

**FIZIKA-MATEMATIKA FANLARI
bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent-2023

Fizika-matematika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (Doctor of Philosophy) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2022.4.PhD/FM794 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya O‘zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi V.I. Romanovskiy nomidagi Matematika institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, ingliz, rus (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasi (http://ik-fizmat.nuu.uz/) va «Ziyonet» ta’lim axborot tarmog‘ida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:	**Hayotov Abdullo Raxmonovich** fizika-matematika fanlari doktori, professor
Rasmiy opponentlar:	**Uteuliev Nietbay Uteulievich** fizika-matematika fanlari doktori, professor
	Nuraliev Farhod Abdug‘anievich fizika-matematika fanlari doktori, dotsent
Yetakchi tashkilot:	**Buxoro davlat universiteti**

Dissertatsiya himoyasi O‘zbekiston Milliy universiteti huzuridagi DSc.03/30.12.2019.FM.01.02 raqamli Ilmiy kengashning «___»_________ 2023 yil soat____ dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 100174, Toshkent sh., Olmazor tumani, Universitet ko‘chasi, 4-uy. Tel.: (+99871) 227-12-24, faks: (+99871) 246-53-21, 246-02-24, e-mail: nauka@nuu.uz).

Dissertatsiya bilan O‘zbekiston Milliy universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (___ raqami bilan ro‘yxatga olingan). (Manzil: 100174, Toshkent sh., Olmazor tumani, Universitet ko‘chasi, 4-uy. Tel.: (+99871) 246-02-24).

Dissertatsiya avtoreferati 2023 yil «____» _______________kuni tarqatildi.
(2023 yil «____» ___________ dagi _______ raqamli reestr bayonnomasi).

M.M. Aripov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy
kengash raisi, f.-m.f.d., professor

Z.R. Raxmonov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy
kengash ilmiy kotibi, f.-m.f.d.

X.M. Shadimetov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy
kengash huzuridagi ilmiy seminar
raisi, f.-m.f.d., professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon miqyosida olib borilayotgan koʻplab ilmiy-amaliy tadqiqotlar natijasida tasvirlani tahlil qilish, kommunikatsiya tizimlari uchun signallarni modulyatsiya va demodulyatsiya qilish, sanoatda va tibbiyotda kompyuter tomografiyasi masalalarining yechimlari kuchli tebranuvchi funksiyalarning maʼlum integrallarini hisoblashga olib kelinadi. Kuchli tebranuvchi integrallarni taqribiy hisoblash uchun sonli integrallashning standart metodlari katta miqdordagi hisoblash ishlarini talab qiladi va ularni amaliyotda toʻgʻridan-toʻgʻri qoʻllash samarali natija bermaydi. Shuning uchun, bunday integrallarni taqribiy hisoblashning samarali usullarini ishlab chiqish, funksiyalarning turli sinflarida eksponensial vaznli integrallarni taqribiy hisoblashning yangi metodlarini yaratish, hamda ularning xatoliklarini baholash hisoblash matematikasining muhim vazifalaridan biri boʻlib hisoblanadi.

Hozirgi kunda dunyoda kuchli tebranuvchi integrallarni taqribiy hisoblashda optimal kvadratur formulalar qurish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Xususan, Furye koeffisiyentlari va integrallarini sonli integrallashda davriy funksiyalar fazolarida optimal kvadratur formulalar qurish, ularning xatoliklarini baholash keng tatbiq etilmoqda. Hisoblash matematikasining eng muhim muammolaridan biri bu – kuchli tebranuvchi integrallarni taqribiy hisoblash uchun differensiallanuvchi funksiyalarning turli fazolarida samarali kvadratur formulalar qurishdan iborat. Shu munosabat bilan kuchli tebranuvchi integrallarni taqribiy hisoblash, shuningdek, differensiallanuvchi davriy funksiyalar fazosida ularning xatoliklarini baholash uchun asimptotik optimal va optimal kvadratur formulalar qurish maqsadli ilmiy tadqiqotlardan biri hisoblanadi.

Mamlakatimizda fundamental fanlarning ilmiy va amaliy tatbiqiga ega boʻlgan tasvirlar tahlili, elektrodinamika, suyuqliklar mexanikasi va matematik fizika, geolegiya, geofizika masalalarini sonli-analitik yechish va kompyuter tomografiyasi tasvirlarini samarali qayta tiklash kabi muhim yoʻnalishlarga katta eʼtibor qaratilmoqda. Xususan, hisoblash matematikasining sonli integrallash nazariyasiga katta eʼtibor qaratilgan boʻlib, ayniqsa, bir va koʻp oʻzgaruvchili, davriy va davriy boʻlmagan funksiyalarning Banax va Gilbert fazolarida regulyar va singulyar vaznli integrallarni taqribiy hisoblash uchun panjarali optimal kvadratur va kubatur formulalar qurish boʻyicha muhim natijalarga erishildi. “Funksional analiz, matematik fizika, dinamik sistemalar nazariyasi, differensial tenglamalar, amaliy va hisoblash matematikasi” kabi fanlarining ustuvor yoʻnalishlari boʻyicha xalqaro standartlar darajasida ilmiy izlanishlar olib borish OʻzR FA V.I.Romanovskiy nomidagi Matematika instituti faoliyatining asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi [1]. Qaror ijrosini taʼminlash maqsadida kuchli tebranuvchi integrallarni taqribiy hisoblash uchun optimal kvadratur formulalar qurish va differensiallanuvchi davriy funksiyalarning turli Gilbert fazolarida ularning xatoliklarini baholash muhim ahamiyatga ega.

[1] Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 18-maydagi “Oʻzbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining yangi tashkil etilayotgan ilmiy-tadqiqot muassasalari faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari toʻgʻrisida”gi 292-son qarori va tuzilmaviy masalalar

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevral PF-4947-sonli «O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha harakatlar strategiyasi to‘g‘risida»gi, 2022-yil 28-yanvar PF-60 sonli «2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida»gi farmonlari, 2017-yil 17-fevral PQ-2789-sonli «Fanlar akademiyasi faoliyati, ilmiy-tadqiqot ishlarini tashkil etish, boshqarish va moliyalashtirishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi, 2017-yil 20-aprel PQ-2909-sonli «Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi, 2018-yil 27-aprel PQ-3682-sonli «Innovatsion g‘oyalar, texnologiyalar va loyihalarni amaliyotga joriy qilish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi, 2020-yil 7-may PQ-4708-sonli «Matematika sohasidagi ta’lim sifatini oshirish va ilmiy-tadqiqotlarni rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi qarorlari, hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga bog‘liqligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining IV «Matematika, mexanika va informatika» ustuvor yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Ma’lumki, fan va texnikaning ko‘plab muammolari kuchli tebranuvchi funksiyalarning ma’lum integrallarini, xususan, Furye koeffisiyentlari va integrallarini hisoblashga olib kelinadi. Kuchli tebranuvchi integrallarni taqribiy hisoblash uchun bir qancha maxsus usullar ishlab chiqilgan. Jumladan, Faylon usuli, asimptotik yoyish usuli, Levinning kollokatsiya usuli, eng tez tushish va optimal kvadratur va kubatur formulalar usullarini misol qilib aytish mumkin. Dastlab, integrallash oralig‘ida mos funksiyani parabola yoylari bilan bo‘lakli yaqinlashtirishga asoslangan Faylon usuli taqdim etilgan. Keyinchalik turli tipdagi kuchli tebranuvchi funksiyalarga ega integrallarni taqribiy hisoblash uchun Faylon tipidagi, Klenshou-Kurtis-Faylon tipidagi, Levin tipidagi, takomillashgan Klenshou-Kurtis, umumlashgan kvadratur formulalar va Gauss-Lagerr kvadratur formulalar usullari ishlab chiqildi. Bu usullar bilan, oxirgi yillarda, L. Zhang, A. Asheim, V. Dominguez, E.A. Flinn, J. Gao, J.M. Melenk, K.N. Melnik va R.V.N. Melnik, H. Mo va Sh. Xiang, L.F. Shampine, G. He va Y.J. Cho, H. Kang, M.I. Isroilov, B. Eshdavlatov va S.A. Baxromov kabi olimlar ko‘plab tadqiqotlarni amalga oshirishgan. D. Huybrechs, Sh. Olver, A. Iserles, S.P. Norsett, S.-I.S. Zaman, S.I.U. Nasib, S. Olver, H. Wang kabi olimlar asimptotik yoyish usuli bo‘yicha ilmiy tadqiqotlar olib borishgan.

Ma’lum Banax fazolarida berilgan funksiyalar aniq integrallarini taqribiy hisoblash uchun optimal kvadratur va kubatur formulalar qurishda Sobolev, splayn funksiyalar va ϕ - funksiya usullari mavjud. Dastlab, $L_2(\Omega)$ fazoda chiziqli differensial operatorning diskret analogi tushunchasidan foydalanib, optimal kvadratur va kubatur formulalar qurish nazariyasi bilan S.L. Sobolev shug‘ullangan. Akademik S.L. Sobolev tomonidan taklif qilingan optimal kvadratur va kubatur formulalar qurish algoritmni amalga oshirish bilan $L_2(\Omega)$, $K_2(P_m)$, $K_2^{(\overline{m,m-2})}$ va

$W_2^{(m,0)}$ fazolarida Z.J. Jamalov, F.Ya. Zagirova, X.M. Shadimetov, A.R. Hayotov, G.V. Milovanović, F. Lanzara, F.A. Nuraliev, D.M. Axmedov, S.S. Azamov va A.K. Bolatevlar shug'ullanishgan. 1999-yilda X.M. Shadimetovning ishida, davriy funksiyalarning Sobolev fazosida vaznli integrallar uchun panjarali kubatur formulalar qurilgan. Ushbu ishdan, xususan, vazn funksiyasi $\exp(i\sigma x)$ bo'lganda Furye koeffisiyentlarini taqribiy hisoblash uchun qurilgan I. Babuškaning optimal kvadratur formulasi kelib chiqadi. 2015-yilda E. Novak, M. Ulrih va H.Vajniakovskiylar Sobolevning standart H^s davriy va davriy bo'lmagan funksiyalar fazosida bir o'zgaruvchili tebranuvchi integrallarning taqribiy hisoblashlarini o'rganishgan.

Ta'kidlash joizki, so'ngi yillarda, $L_2^{(m)}$ va $W_2^{(m,m-1)}$ Gilbert fazolarida X.M. Shadimetov, G.V. Milovanović, A.R. Hayotov, N.D. Boltaev, C.-O. Lee, S. Jeon, S.S. Babaev va B.I. Bozarovlar kuchli tebranuvchi integrallarni taqribiy hisoblash uchun optimal kvadratur formulalar qurish va ularni amaliyotga tatbiq qilish bo'yicha ilmiy izlanishlar olib borishgan. Buning natijasida, sanoat va tibbiyot sohalarida kompyuter tomografiyasi tasvirlarini, laboratoriya sharoitida yuqori aniqlikda qayta tiklashga erishishgan.

Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilayotgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi V.I. Romanovskiy nomidagi Matematika instituti Hisoblash matematikasi laboratoriyasining "Gilbert fazolarida optimal kvadratur, interpolyatsion, ayirmali formulalar qurish va ularni integral tenglamalarni yechishga tatbiqlari" mavzusidagi kalendar reja doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi differensiallanuvchi davriy funksiyalarning $\tilde{W}_2^{(m,m-1)}(0,1]$ Gilbert fazosida Furye koeffisiyentlarini taqribiy hisoblash uchun optimal kvadratur fomulalar qurish va ularning xatoliklarini aniq yuqori chegarasini topish, hamda differensiallanuvchi funksiyalarning $W_2^{(m,m-1)}(a,b)$ kompleks qiymatli Gilbert fazosida Furye integrallarini taqribiy hisoblash uchun effektiv kvadratur formulalar olishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

differensiallanuvchi davriy funksiyalarning $\tilde{W}_2^{(m,m-1)}(0,1]$ kompleks qiymatli Gilbert fazosida Furye koeffisiyentlarini sonli hisoblash uchun kvadratur fomulalarning ekstremal funksiyasini topish;

differensiallanuvchi davriy funksiyalarning $\tilde{W}_2^{(m,m-1)}(0,1]$ kompleks qiymatli Gilbert fazosida Furye koeffisiyentlarini sonli hisoblash uchun kvadratur fomula xatolik funksionali normasining analitik ko'rinishini topish;

differensiallanuvchi davriy funksiyalarning $\tilde{W}_2^{(m,m-1)}(0,1]$ kompleks qiymatli Gilbert fazosida Furye koeffisiyentlarini sonli hisoblash uchun kvadratur fomulalarning xatolik funksionali normasiga eng kichik qiymat beruvchi optimal koeffisiyentlarini topish;

differensiallanuvchi davriy funksiyalarning $\tilde{W}_2^{(m,m-1)}\left(0,1\right]$ kompleks qiymatli Gilbert fazosida Furye koeffisiyentlarini sonli hisoblash uchun optimal kvadratur fomulalarning xatolik funksionali normasini hisoblash;

$W_2^{(m,m-1)}\left(a,b\right)$ kompleks qiymatli funksiyalarning Gilbert fazosida Furye integrallarini taqribiy hisoblash uchun effektiv kvadratur formulalarning koeffisiyentlarini topish.

Tadqiqotning obyekti differensiallanuvchi davriy funksiyalarning Gilbert fazosi, optimal va effektiv kvadratur formulalar, kuchli tebranuvchi integrallar.

Tadqiqotning predmeti ekstremal funksiyalar, differensiallanuvchi davriy funksiyalarning $\tilde{W}_2^{(m,m-1)}$ Gilbert fazosi, Furye koeffitsientlarini va integrallarini taqribiy hisoblash uchun eksponensial vaznli optimal va effektiv kvadratur formulalardan iborat.

Tadqiqotning usullari. Ilmiy tadqiqot ishida hisoblash matematikasi, funksional analiz, umumlashgan funksiyalar nazariyasi, differensiallanuvchi tenglamalar nazariyasi, diskret argumentli funksiyalar nazariyasi usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

differensiallanuvchi davriy funksiyalarning $\tilde{W}_2^{(m,m-1)}\left(0,1\right]$ kompleks qiymatli Gilbert fazosida Furye koeffisiyentlarini sonli hisoblash uchun kvadratur fomulalarning ekstremal funksiyalari topilgan;

differensiallanuvchi davriy funksiyalarning $\tilde{W}_2^{(m,m-1)}\left(0,1\right]$ kompleks qiymatli Gilbert fazosida Furye koeffisiyentlarini sonli hisoblash uchun kvadratur fomula xatolik funksionali normasining analitik ko‘rinishi topilgan;

differensiallanuvchi davriy funksiyalarning $\tilde{W}_2^{(m,m-1)}\left(0,1\right]$ kompleks qiymatli Gilbert fazosida Furye koeffisiyentlarini sonli hisoblash uchun optimal kvadratur fomulalarning koeffisiyentlari topilgan;

differensiallanuvchi davriy funksiyalarning $\tilde{W}_2^{(m,m-1)}\left(0,1\right]$ kompleks qiymatli Gilbert fazosida Furye koeffisiyentlarini sonli hisoblash uchun optimal kvadratur fomulalarning xatolik funksionalining normasi hisoblangan va $m=1$ va $m=2$ uchun sonli natijalari berilgan;

$W_2^{(m,m-1)}\left(a,b\right)$ kompleks qiymatli Gilbert fazosida Furye integrallarini taqribiy hisoblash uchun effektiv kvadratur formulalarning koeffisiyentlari topilgan.

Tadqiqotning amaliy natijasi quyidagilardan iborat:

qurilgan optimal kvadratur formulalar yordamida Furye koeffisiyentlari taqribiy hisoblangan;

olingan effektiv kvadratur formulalar yordamida Furye integrallari sonli hisoblangan. Olingan natijalar signal modulyatsiya va demodulyatsi qilishda, tasvirlarni qayta ishlashda va boshqa amaliy fanlarida qo‘llanilishi mumkin.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi kvadratur formulalar nazariyasi, hisoblash matematikasi, funksional analiz va diskret argumentli funksiyalar nazariyasi usullari qo‘llanilganligi, matematik mulohazalarning qat’iyligi, shuningdek, olingan sonli natijalar bilan asoslangan.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati Gilbert fazolarida kuchli tebranuvchi integrallarni taqribiy hisoblash uchun optimal va effektiv kvadratur formulalarni qurish algoritmi, hamda qurilgan formulalarning yaqinlashish tezligi yuqoriligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati qurilgan optimal va effektiv kvadratur formulalar kompyuter tomografiyasi va tasvirlar tahlili masalalarini kuchli tebranuvchi integrallar yordamida taqribiy yechishda qo‘llaniladi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Davriy funksiyalarning Gilbert fazosida kuchli tebranuvchi integrallarni taqribiy hisoblash uchun optimal kvadratur formulalarni qurish bo‘yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

Davriy funksiyalarning $\tilde{W}_2^{(1,0)}(0,1]$ va $\tilde{W}_2^{(2,1)}(0,1]$ Gilbert fazolarida kuchli tebranuvchi integrallarni taqribiy hisoblash uchun qurilgan optimal kvadratur formulalardan PZ-20170930257 raqamli “Mahalliy bug‘doy donlaridan navli un tortish texnologiyasida gidrometrik ishlov berish jarayonini takomilllashtirish” (Toshkent kimyo-texnologiya institutining 2023-yil 14-apreldagi 1/04-1177- sonli ma’lumotnomasi) nomli amaliy loyihada gidrotermik ishlov berish jarayonida bug‘doy donlarining o‘lchamlarini (bo‘yi, eni va uzunligi) o‘lchashning aniqligini oshirishda foydalanilgan. Buning natijasida, gidrotermik qurilmalarida sodir bo‘luvchi namlik tarqalishini ifodalovchi matematik modellar yechimlarini ushbu formulalar yordamida sonli hisoblash, ularning geometrik o‘lchamlari optimal qiymatlarini yanada aniqlik bilan topish imkonini bergan.

$\tilde{W}_2^{(3,2)}(0,1]$ kompleks qiymatli Gilbert fazosida qurilgan optimal kvadratur formuladan OT-F4–02 – “Matematik fizikaning holatlar to‘plami cheksiz bo‘lgan modellari termodinamikasi” (Buxoro davlat universitetining 2023-yil 25-apreldagi 04/752-sonli ma‘lumotnomasi) nomli fundamental loyihada matematik fizika tenglamalari uchun qo‘yilgan aralash masalalardagi integrallarni taqribiy hisoblashda qo‘llanilgan. Buning natijasida, qo‘yilgan aralash masalalarning sonli yechimini yuqori aniqlikda topish imkonini bergan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqotning asosiy natijalari 11 ta ilmiy-amaliy anjumanlarda, jumladan 7 ta xalqaro va 4 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinishi.

Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 19 ta ilmiy ish chop etilgan, shulardan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 6 ta maqola, jumladan, 2 tasi xorijiy va 4 tasi respublika jurnallarida nashr etilgan, hamda elektron hisoblash mashinalari uchun dasturni rasmiy ro‘yxatdan o‘tkazish to‘g‘risidagi bitta guvohnoma olingan.

Dissertatsiyaning hajmi va tuzilishi. Dissertatsiya kirish qismi, uchta bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan tashkil topgan. Dissertatsiyaning umumiy hajmi 92 betni tashkil etgan.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilgan, muammoning o‘rganilganlik darajasi, mavzu bo‘yicha dunyo miqyosidagi ilmiy-tadqiqotlar sharhi keltirilgan, tadqiqot maqsadi, vazifalari, obyekti va predmeti tavsiflangan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning nazariy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarining joriy qilinishi, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo‘yicha ma’lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning “**Gilbert fazolarida sonli integrallash formulalari**” deb nomlangan birinchi bobi asosan kirish xarakteriga ega bo‘lib, unda dissertatsiyada qo‘llaniladigan asosiy tushuncha va ta’riflar keltirilgan. Shuningdek, ushbu ilmiy tadqiqot mavzusi doirasida tadqiq etilgan ilmiy izlanishlar va olingan natijalar bayon qilingan.

Bu bobning birinchi paragrafida Gilbert fazolari haqida bayon qilingan va bu fazolarga misollar keltirilgan. Jumaladan, biz ish olib boradigan $W_2^{(m,m-1)}(0,1)$ Gilbert fazosi va undagi skalyar ko‘paytma va norma tushunchalari keltirilgan.

Quyidagi fazoni qaraymiz

$$W_2^{(m,m-1)}(0,1) := \{\varphi : [0,1] \to \mathrm{C} \mid \varphi^{(m-1)} \text{ abs. uzl. va } \varphi^{(m)} \in L_2(0,1)\}$$

bu kompleks qiymatli funksiyalarning Gilbert fazosi bo‘lib, elementlari $m-1$ chi tartibli hosilasi va m chi tartibli umumlashgan hosilalari yig‘indisining absolyut qiymati kvadrati bilan integrallanuvchi funksiyalardir. Ushbu fazoda ikkita φ va ψ funksiyalarning skalyar ko‘paytmasi quyidagicha aniqlangan

$$\langle \varphi, \psi \rangle_{W_2^{(m,m-1)}} = \int_0^1 (\varphi^{(m)}(x) + \varphi^{(m-1)}(x))(\overline{\psi}^{(m)}(x) + \overline{\psi}^{(m-1)}(x))dx, \quad (1)$$

bu yerda $\overline{\psi}$ bu ψ funksiyaning kompleks qo‘shma funksiyasi. (1)-skalyar ko‘paytma bilan birgalikda $W_2^{(m,m-1)}(0,1)$ fazo Gilbert fazosini tashkil etadi. (1)-skalyar ko‘paytmaga mos biror $\varphi \in W_2^{(m,m-1)}(0,1)$ funksiyaning normasi quyidagi kiritiladi

$$\|\varphi\|_{W_2^{(m,m-1)}} = \langle \varphi, \varphi \rangle_{W_2^{(m,m-1)}}^{1/2}, \quad (2)$$

bunda $\int_0^1 \left|\varphi^{(m)}(x) + \varphi^{(m-1)}(x)\right|^2 dx < \infty$.

Ushbu $W_2^{(m,m-1)}(0,1)$ fazoning har bir elementi bu – biri ikkinchisidan e^{-x} va $(m-2)$ darajaligacha bo‘lgan ko‘phadlarning chiziqli kombinatsiyasi bilan farq qiluvchi funksiyalar sinfidir, ya’ni $W_2^{(m,m-1)}(0,1)$ fazo faktor fazodir.

Birinchi bobning ikkinchi paragrafida ushbu ilmiy ishda muhim bo‘lgan Bernulli sonlari va ko‘phadlari va ularning xossalari, hamda davriy Bernulli ko‘phadlari keltirilgan.

Quyidagi tenglikda

$$\frac{z}{e^z-1}=\sum_{n=0}^{\infty}\frac{B_n}{n!}z^n, \quad |z|<2\pi,$$

B_n - Bernulli soni bo‘lib, uning B_1 elementidan boshqa qolgan barcha toq nomerdagi sonlari nolga teng, ya’ni

$$B_{2k+1}=0, \ k=1,2,\ldots$$

va dastlabki bir nechta hadlari quyidagicha

$$B_0=1, \ B_1=-\frac{1}{2}, \ B_2=\frac{1}{6}, \ B_4=-\frac{1}{30}, \ B_6=\frac{1}{42}, \ B_8=-\frac{1}{30}, \ B_{10}=\frac{5}{66}.$$

Bernulli ko‘phadlari quyidagi formula orqali aniqlanadi

$$\frac{ze^{xz}}{e^z-1}=\sum_{n=0}^{\infty}\frac{B_n(x)}{n!}z^n, \quad |z|<2\pi.$$

Davriy Bernulli ko‘phadlari

$$\tilde{B}_n(x)=B_n(x), \quad 0\le x<1,$$

va

$$\tilde{B}_n(x+1)=B_n(x), \quad x\in\mathbb{R}$$

ga teng.

Birinchi bobning uchinchi paragrafida davriy funksiyalar va ularning xossalari keltirib o‘tilgan.

1-ta’rif. Agar x o‘zgaruvchining barcha haqiqiy qiymatlarida aniqlangan $f(x)$ funksiya uchun noldan farqli shunday haqiqiy T son mavjud bo‘lsaki

$$f(x+T)=f(x), \ \forall x\in\mathbb{R},$$

tenglik o‘rinli bo‘lsa, u holda $f(x)$ *davriy funksiya*, T son *uning davri* deyiladi.

Birinchi bobning to‘rtinchi paragrafida B - Banax fazosida optimal kvadratur formulalar qurish masalasi keltirilgan.

S.L. Sobolev tomonidan quyidagi ko‘rinishdagi kvadratur formulalar

$$\int_a^b p(x)\varphi(x)dx\cong\sum_{\beta=0}^{N}C_\beta\varphi(x_\beta), \tag{3}$$

ushbu xatolik funksionali bilan birga qaralgan

$$\ell_N(x)=p(x)\varepsilon_{[a,b]}(x)-\sum_{\beta=0}^{N}C_\beta\delta(x-x_\beta),$$

bunda $p(x)$ – vazn funksiyasi bo‘lib, $\int\limits_a^b p(x)dx<\infty$ o‘rinli, x_β – tugun nuqtalar, C_β – koeffisiyentlar, $\varphi(x)\in B$ va B Banax fazosi uzluksiz funksiyalar sinfida kompakt joylashgan, ya’ni $B\to C(a,b)$.

(3)-kvadratur formulaning xatoligi quyidagicha bo‘lib

$$(\ell_N,\varphi)=\int_a^b p(x)\varphi(x)dx-\sum_{\beta=0}^{N}C_\beta\varphi(x_\beta), \tag{4}$$

ℓ_N xatolik funksionalining φ dagi qiymatiga teng.

Koshi-Shvarts tengsizligiga ko‘ra (3)-kvadratur formulaning (4)-xatoligi ℓ_N xatolik funksionalining normasi yordamida yuqoridan quyidagicha baholanadi

$$\left|(\ell_N,\varphi)\right| \le \|\ell_N\|_{B^*} \cdot \|\varphi\|_B .$$

2-ta'rif. Barcha $\varphi \in B$ lar uchun, (4)-xatolikning absolyut qiymatining yuqori chegarasiga, ya'ni $\|\ell_N\|_{B^*}$ normaga koeffisiyentlar va tugun nuqtalar bo'yicha eng kichik qiymat beradigan kvadratur formulaga, qaralayotgan fazoda *Nikolskiy ma'nosida optimal kvadratur formula* yoki *eng yaxshi optimal kvadratur formula* deyiladi.

3-ta'rif. Tugun nuqtalar fiksirlangan holda, $\|\ell_N\|_{B^*}$ normaga minimum qiymat beruvchi C_β koeffisiyentlar optimal koeffisiyentlar deyiladi va $\overset{\circ}{C}_\beta$ kabi belgilanadi. Bu optimal koeffisiyentlar bilan birgalikda (3)-ko'rinishdagi kvadratur formulaga *Sard ma'nosida optimal kvadratur formula* deyiladi.

Biz bundan keyin Sard ma'nosida optimal kvadratur formulalar qurish masalasini qaraymiz. Bu masalani yechish uchun quyidagi masalalarni ketma-ket hal qilish kerak bo'ladi.

Masala A. (3)-kvadratur formula ℓ_N xatolik funksionalining $\|\ell_N\|_{B^*}$ normasini hisoblash.

Masala B. ℓ_N xatolik funksionalining $\|\ell_N\|_{B^*}$ normasiga minimum qiymat beruvchi $C_\beta = \overset{\circ}{C}_\beta$ optimal koeffisiyentlarni topish

$$\left\|\overset{\circ}{\ell}_N\right\|_{B^*} := \inf_{C_\beta} \|\ell_N\|_{B^*} .$$

Birinchi bobning beshinchi paragrafida

$$I_\varphi(\omega) = \int_\Omega e^{2\pi i\omega g(x)}\varphi(x)dx \tag{5}$$

ko'rinishdagi kuchli tebranuvchi integrallarni taqribiy hisoblash usullari muhokama qilinadi. (5)-ko'rinishdagi integralda φ va g lar tebranmaydigan funksiyalar, ω – tebranish chastotasi va Ω – bo'lakli uzluksiz chegaraga ega.

(5)-ko'rinishdagi integrallarni taqribiy hisoblashda sonli integrallashning standart metodlar ko'pincha ko'proq hisoblash ishlarini talab qiladi va ularni amaliyotda qo'llash samarali natija bermaydi. Shu bois, maxsus metodlar ishlab chiqish zarurati paydo bo'ldi. φ va g funksiyalarning xossalariga qarab, $I_\varphi(\omega)$ kuchli tebranuvchi integrallarni sonli hisoblashning turli metodlari ishlab chiqilgan.

Bu paragrafda (5)-ko'rinishdagi kuchli tebranuvchi integrallarni taqribiy hisoblashning maxsus usullari: asimptotik yoyish, Filon tipidagi usullari, Levinning kolakatsiya usuli, eng tez tushish usuli, hamda optimal kvadratur va kubatur formulalar usullari tahlil qilingan.

Dissertatsiyaning **"Davriy funksiyalarning $\tilde{W}_2^{(m,m-1)}(0,1]$ Gilbert fazolarida optimal kvadratur formulalar"** deb nomlangan ikkinchi bobi differensiallanuvchi davriy funksiyalarning Gilbert fazosida optimal kvadratur formulalar qurishga bag'ishlanadi.

Ushbu bobning birinchi paragrafida $\tilde{W}_2^{(m,m-1)}(0,1]$ fazoda Furye koeffisiyentlarini sonli hisoblash uchun optimal kvadratur formulalar qurish masalasi qo‘yilgan.

Biz ushbu

$$W_2^{(m,m-1)}(0,1) := \{\varphi : [0,1] \to \mathbb{C} \mid \varphi^{(m-1)} \text{ abs.uzl.va } \varphi^{(m)} \in L_2(0,1)\}$$

fazoning quyidagi tenglikni qanoatlantiruvchi

$$\varphi(x+\beta) = \varphi(x),\ x \in \mathbb{R} \text{ va } \beta \in \mathbb{Z},$$

ya’ni, eng kichik musbat davri 1 bo‘lgan elementlaridan tashkil topgan qism fazosini $\tilde{W}_2^{(m,m-1)}(0,1]$ deb belgilaymiz.

Bu fazoda, quyidagi ko‘rinishdagi kvadratur formulani qaraymiz

$$\int_0^1 e^{2\pi i\omega x}\varphi(x)dx \cong \sum_{k=1}^{N} C_k\varphi(hk), \tag{6}$$

bu yerda $\omega \in \mathbb{Z}\setminus\{0\}$, C_k – koeffisiyentlar, $h = 1/N$ va N – tugun nuqtalar soni.

(6)-kvadratur formulaga mos xatolik

$$(\ell,\varphi) = \int_0^1 e^{2\pi i\omega x}\varphi(x)dx - \sum_{k=1}^{N} C_k\varphi(hk) = \int_0^1 \ell(x)\varphi(x)dx \tag{7}$$

va unga mos davriy xatolik funksionali quyidagicha

$$\ell(x) = e^{2\pi i\omega x} - \sum_{k=1}^{N} C_k \sum_{\beta=-\infty}^{\infty} \delta(x - hk - \beta),$$

bu yerda δ – Dirakning delta-funksiyasi.

Ushbu $\tilde{W}_2^{(m,m-1)*}$ qo‘shma fazo $m \geq 2$ uchun birga ortogonal bo‘lgan davriy funksionallardan tashkil topgan, ya’ni

$$(\ell,1) = 0. \tag{8}$$

(8)-shart (6)-ko‘rinishdagi kvadratur formulani ixtiyoriy o‘zgarmas songa aniq ekanligini ko‘rsatadi va uni quyidagicha yozish mumkin

$$\int_0^1 e^{2\pi i\omega x}dx = \sum_{k=1}^{N} C_k.$$

Koshi-Shvarts tengsizligidan ko‘rinadiki, (7)-xatolikning absolyut qiymati ℓ xatolik funksionalining normasi yordamida yuqoridan quyidagicha baholanadi

$$|(\ell,\varphi)| \leq \|\ell\|_{\tilde{W}_2^{(m,m-1)*}} \cdot \|\varphi\|_{\tilde{W}_2^{(m,m-1)}},$$

bu yerda

$$\|\ell\|_{\tilde{W}_2^{(m,m-1)*}} = \sup_{\varphi, \|\varphi\| \neq 0} \frac{|(\ell,\varphi)|}{\|\varphi\|}.$$

Shuni ta’kidlaymizki, xatolik funksionalining normasiga minimum qiymat beruvchi C_k koeffisiyentlarga *optimal koeffiiyentlar* deyiladi va $\mathring{C}_k$ kabi belgilanadi. Bu koeffisiyentlar bilan birgalikda (6)-ko‘rinishdagi kvadratur formulaga esa *optimal kvadratur formula* deyiladi.

Optimal kvadratur formulaning xatolik funksionali normasining minimumi quyidagicha belgilanadi

$$\left\|\overset{\circ}{\ell}\right\|_{\widetilde{W}_2^{(m,m-1)*}} := \inf_{C_k} \|\ell\|_{\widetilde{W}_2^{(m,m-1)*}}.$$

Ushbu $\widetilde{W}_2^{(m,m-1)}(0,1]$ fazosida (6)-ko'rinishdagi optimal kvadratur formulalar qurish uchun quyidagi masalani yechishimiz talab etiladi.

1-masala. (6)-ko'rinishidagi kvadratur formulaning ℓ xatolik funksionali $\|\ell\|_{\widetilde{W}_2^{(m,m-1)*}}$ normasining analitik ko'rinishini topish.

2-masala. (6)-ko'rinishidagi kvadratur formulaning ℓ xatolik funksionali normasiga minimum qiymat beruvchi $\overset{\circ}{C}_k$ optimal koeffisiyentlarni topish.

3-masala. (6)-optimal kvadratur formulaning $\overset{\circ}{\ell}$ xatolik funksionali normasini hisoblash.

Yuqoridagi masalani ixtiyoriy $m \in \mathrm{N}$ va $\omega \in \mathrm{Z}$ da to'liq yechishimiz uchun, quyidagi hollarda bu masalani alohida qarab chiqishimizga to'g'ri keladi:

1. $m = 1$ va $\omega \in \mathrm{Z}$;
2. $m \geq 2$ va $\omega \in \mathrm{Z} \setminus \{0\}$, $\omega h \notin \mathrm{Z}$;
3. $m \geq 2$ va $\omega h \in \mathrm{Z} \setminus \{0\}$;
4. $m \geq 2$ va $\omega = 0$.

Ikkinchi bobning ikkinchi paragrafida 1-masalani yeshish bilan shug'ullanamiz. Bunig uchun, ℓ xatolik funksionalining ekstremal funksiyasidan foydalanamiz.

Koshi-Shvarts tengsizligini tenglikka aylantiruvchi, ya'ni quyidagi tenglikni qanoatlantiruvchi ℓ xatolik funksionaliga mos ψ_ℓ funksiyaga *ekstremal funksiya* deyiladi

$$(\ell, \psi_\ell) = \|\ell\|_{\widetilde{W}_2^{(m,m-1)*}} \cdot \|\psi_\ell\|_{\widetilde{W}_2^{(m,m-1)}}.$$

Ekstremal funksiya uchun quyidagi tasdiq o'rinli.

Chiziqli uzluksiz funksionalning umumiy ko'rinishi haqidagi Riss teoremasidan foydalanib, quyidagi differensial tenglamani olamiz

$$\overline{\psi_\ell}^{(2m)}(x) - \overline{\psi_\ell}^{(2m-2)}(x) = (-1)^m \ell(x). \tag{9}$$

Teorema 1. (9)-tenglamaning umumlashgan yechimi ℓ xatolik funksionaliga mos ψ_ℓ ekstremal funksiya bo'lib, u quyidagicha ifodalanadi

a) $m = 1$ va $\omega \in \mathrm{Z}$ uchun

$$\psi_\ell(x) = e^{-2\pi i\omega x} \cdot \kappa_1(\omega) - \sum_{k=1}^{N} \overline{C}_k \sum_{\beta=-\infty}^{\infty} e^{2\pi i\beta(x-hk)} \cdot \kappa_1(\beta),$$

b) $m \geq 2$ va $\omega \in \mathrm{Z} \setminus \{0\}$ uchun

$$\psi_\ell(x) = e^{-2\pi i\omega x} \cdot \kappa_m(\omega) - \sum_{k=1}^{N} \overline{C}_k \sum_{\beta\neq 0} e^{2\pi i\beta(x-hk)} \cdot \kappa_m(\beta) + d_0,$$

bunda d_0 – biror o'zgarmas va

$$\kappa_m(\omega) = \frac{1}{(2\pi\omega)^{2m} + (2\pi\omega)^{2m-2}}. \tag{10}$$

(8)-ortogonallik shartidan ko‘rinadiki, ℓ xatolik funksionalining normasini $m=1$ va $m\geq 2$ hollarida alohida hisoblash talab etiladi.

$m=1$ da ℓ xatolik funksionali normasinining analitik ko‘rinishi quyidagicha ifodalanadi

$$\|\ell\|^2_{\tilde{W}_2^{(1,0)*}}=\kappa_1(\omega)-\kappa_1(\omega)\sum_{k'=1}^{N}\overline{C}_{k'}e^{2\pi i\omega hk'}-\kappa_1(\omega)\sum_{k=1}^{N}C_k e^{-2\pi i\omega hk}$$
$$+\sum_{k=1}^{N}\sum_{k'=1}^{N}C_k\overline{C}_{k'}\sum_{\beta=-\infty}^{\infty}\kappa_1(\beta)\cdot e^{2\pi i\beta h(k-k')}, \qquad (11)$$

bunda $\omega\in\mathbb{Z}$ va $\kappa_1(\cdot)$ miqdor (10)-formula bilan aniqlangan.

Ushbu $\tilde{W}_2^{(m,m-1)*}$ qo‘shma fazoda $m\geq 2$ uchun ℓ xatolik funksionali normasi kvadratining analitik ko‘rinishi quyidagicha aniqlanadi

$$\|\ell\|^2_{\tilde{W}_2^{(m,m-1)*}}=\kappa_m(\omega)-\kappa_m(\omega)\sum_{k'=1}^{N}\overline{C}_{k'}e^{2\pi i\omega hk'}-\kappa_m(\omega)\sum_{k=1}^{N}C_k e^{-2\pi i\omega hk}$$
$$+\sum_{k=1}^{N}\sum_{k'=1}^{N}C_k\overline{C}_{k'}\sum_{\beta\neq 0}\kappa_m(\beta)\cdot e^{2\pi i\beta h(k-k')}, \qquad (12)$$

bunda $\omega\in\mathbb{Z}\setminus\{0\}$.

Shunday qilib, 1-masala yechildi.

Ikkinchi bobning uchinchi paragrafida ushbu dissertatsiya ishining asosiy natijalari olinadi, ya’ni ℓ xatolik funksionalining normasiga minimum qiymat beruvchi, (6)-kvadratur formulaning $\overset{\circ}{C}_k$ optimal koeffisiyentlarini topamiz. Buning uchun, bu masalani $m=1$ va $\omega\in\mathbb{Z}$, hamda $m\geq 2$ va $\omega\in\mathbb{Z}\setminus\{0\}$ hollarida alohida qaraymiz.

Dastlab, $m=1$ uchun quyidagi chiziqli tenglamalar sistemasini olamiz

$$\frac{\partial L_1}{\partial\overline{C}_{k'}}=-e^{2\pi i\omega hk'}\kappa_1(\omega)+\sum_{k=1}^{N}C_k\sum_{\beta=-\infty}^{\infty}e^{2\pi i\beta h(k-k')}\kappa_1(\beta)=0,\ k'=1,2,...,N. \qquad (13)$$

Ta’kidlash kerakki, (13)-tenglamalar sistemasi diskret Viner-Xopf tipidagi tenglamalar sistemasi bo‘lib, bu turdagi sistemalarning yechimi mavjud va yagonaligi va bu yechim $\|\ell\|$ normaga mininimum berishi S.L. Sobolev va X.M. Shadimetovlar tomonidan isbotlangan.

Teorema 2. Kompleks-qiymatli, eng kichik musbat davri 1 bo‘lgan funksiyalarning $\tilde{W}_2^{(1,0)}(0,1]$ fazosida (6)-ko‘rinishidagi kvadratur formulalar orasida, koeffisiyentlari quyidagicha ko‘rinishda bo‘lgan yagona optimal kvadratur formula mavjud

$$\overset{\circ}{C}_k=\frac{2K_{\omega,1}}{4\pi^2\omega^2+1}\cdot e^{2\pi i\omega hk}\quad k=1,2,...,N, \qquad (14)$$

bunda

$$K_{\omega,1}=\frac{e^{2h}+1-2e^h\cos(2\pi\omega h)}{e^{2h}-1}.$$

Teorema 2 dan quyidagi natijalar kelib chiqadi:

Natija 1. Teorema 2 dagi, (14)-ko‘rinishdagi optimal koeffisiyentlar, $\omega h\in\mathbb{Z}$ bo‘lganda quiyidacha ifodalanadi

$$\overset{\circ}{C}_k = \frac{2}{4\pi^2\omega^2+1} \cdot \frac{e^h-1}{e^h+1}, \quad k=1,2,...,N.$$

Natija 2. (14)-ko‘rinishdagi optimal koeffisiyentlar, $\omega = 0$ da quyidagi ko‘rinishga ega

$$\overset{\circ}{C}_k = \frac{2\left(e^h-1\right)}{e^h+1}, \quad k=1,2,...,N.$$

$\tilde{W}_2^{(m,m-1)}(0,1]$ fazosida $m \ge 2$ da (6)-kvadratur formulaning koeffisiyentlari uchun quyidagi chiziqli tenglamalar sistemasini olamiz

$$\frac{\partial L}{\partial \overline{C}_{k'}} = -e^{2\pi i \omega h k'} \cdot \kappa_m(\omega) + \sum_{k=1}^{N} C_k \sum_{\beta \ne 0} e^{2\pi i \beta h(k-k')} \kappa_m(\beta) = 0, \; k'=1,2,\ldots,N, \tag{15}$$

$$\frac{\partial L}{\partial \mu} = \int_0^1 e^{2\pi i \omega x} dx - \sum_{k'=1}^{N} C_{k'} = 0, \tag{16}$$

bu yerda $\kappa_m(\cdot)$ kattalik (10)-formula bilan aniqlangan.

(15),(16)-tenglamalar sistemasining yechimi uchun quyidagi teoremalar o‘rinli.

Teorema 3. Kompleks-qiymatli davriy funksiyalarning $\tilde{W}_2^{(m,m-1)}(0,1]$ fazosida $m \ge 2$, $\omega \in Z \setminus \{0\}$ va $\omega h \notin Z$ holida (6)-optimal kvadratur formulaning koeffisiyentlari quyidagicha ko‘rinishda bo‘ladi

$$\overset{\circ}{C}_k = \frac{2K_{\omega,m}}{(2\pi\omega)^{2m} + (2\pi\omega)^{2m-2}} \cdot e^{2\pi i \omega h k}, \quad k=1,2,...,N. \tag{17}$$

bu yerda

$$K_{\omega,m} = (-1)^{m-1}\left[\frac{e^{2h}-1}{e^{2h}+1-2e^h\cos(2\pi\omega h)} + \sum_{n=1}^{m-1} \frac{2h^{2n-1} \cdot \lambda E_{2n-2}(\lambda)}{(2n-1)!(1-\lambda)^{2n}}\right]^{-1},$$

$\lambda = e^{2\pi i \omega h}$ va $E_{2n-2}(\lambda)$ bu – $(2n-2)$ darajali Eyler-Frobenius ko‘phadi.

Teorema 3 dan quyidagi natijani olamiz:

Natija 3. (6)-optimal kvadratur formulaning (17)-koeffisiyentlari $\omega \in \square \setminus \{0\}$ va $\omega h \notin Z$ holi uchun $\tilde{W}_2^{(2,1)}\left(0,1\right]$ fazoda quyidagicha ko‘rinishda bo‘ladi

